



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No5(2)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 326 sahifa,  
6-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

**Karimova E'zoza Gapirzhanovna** – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

**Shoumarov G. B.** – Doctor of Psychological Sciences, Academician

**Qirg'izboyev A. K.** – Doctor of Historical Sciences, Professor

**Jamoldinova O.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Sharipov Sh.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Shermuhhammadov B.Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Ma'murov B.B.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Madraximova F.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Kalonov M.B.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Nabiyev D.X.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Koldoshev K. M.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Ikramxanova F.I.** – Doctor of Philological Sciences, Professor

**Ismagilova F.S.** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

**Stoyuxina N.Yu.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

**Magauova A.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

**Rejep O'zyurek** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

**Wookyu Cha** – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

**Polonnikov A.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

**Mizayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Baybayeva M.X.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Muxsiyeva A.T.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Aliyev B.** – Doctor of philosophy, professor

**Abdullayeva N. Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

**Doniyorov S. M.** – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

**Gafurov D. O.** – Doctor of Philosophy (PhD)

**Shomurodov R.T.** – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

**Mirzayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

**Jalilova S.X.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Bafayev M.M.** – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Usmonova D.I.** – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

**Saifnazarov I.** – Doctor of philosophy, professor

**Nematov Sh.E.** – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

**Tillashayxova X.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva F.I.** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva D.B.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

**Tangriyev A.T.** – is a professor of Tashkent State University of Economics

**Ashurov R. R.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

**Panjiyev M. A.** – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

**Khudaiberganov N. A.** – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Fizika ta'limida integratsiyalashgan yondashuv: mazmuni va ahamiyati.....	10
<b>Doniyorova Iroda Baxtiyor qizi</b>	
Zamonaviy boshlang'ich ta'lim: milliy dastur, kompetensiya va xorijiy tajriba integratsiyasi.....	14
<b>Omonova Nilufar Parda qizi</b>	
The Role of Environmental Project-Based Learning in Developing EFL Learners' Productive Skills.....	19
<b>Xujanova Shaxina Abdullayevna</b>	
Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limning pedagogik aspektlari .....	24
<b>Eshpo'latova Elnora Yo'ldoshovna</b>	
Talabalarda stressga barqarorlikning nazariy va amaliy tahlili.....	29
<b>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Maxmudova Shahzoda Maksudovna</b>	
Malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda didaktik ta'minotning ahamiyati.....	32
<b>Ramozonova Bahroy Sadriddinovna</b>	
Oliy ta'limda raqamli pedagogikaning institutsionallashuvi: boshqaruv, siyosat va raqamli transformatsiya strategiyalari.....	36
<b>Nuraliyeva Dilshoda Yo'lichiboy qizi</b>	
Aholini jismoniy sog'lomlashtirishda sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.....	41
<b>V. Sh. Raximov</b>	
O'spirinlik davrida motiv va motivatsion sohalarning kasb tanlashdagi o'rni .....	46
<b>Rayimqulova S., Pulatova R., Do'smatova S., Matyakubova Shohista Odamboy qizi</b>	
Tarbiyachi shaxsining shakllanishida psixologik determinantlarning roli .....	51
<b>Vasila Yusupova</b>	
Kasbiy ta'lim o'quvchilarini ijodiy qobiliyatini oshirishda xorijiy tajribalardan foydalanish .....	55
<b>B. X. Sharopov</b>	
Raqamli axborot makonida gumanistik g'oyalarni integratsiyalashning nazariy konsepsiyasi .....	59
<b>Isanov Najotbek Ilmamat o'g'li</b>	
Fanlararo integratsiya asosida o'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish imkoniyatlari.....	63
<b>J. M. Fayzullayev, Ortiqova E'zoza Olimjon qizi</b>	
Millatlarning o'ziga xos dunyoqarashining psixologik xususiyatlari .....	67
<b>Murxashev Axmadxon Olimjon o'g'li</b>	
Xalqaro ta'lim dasturlari asosida kasbiy ta'lim muassasalarida metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi.....	70
<b>S. A. Qarshiboyev</b>	
Ijtimoiy media kontentlari orqali talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning nazariy asoslari.....	74
<b>Suyunov Rustam Sadriddinovich</b>	
Ko'p tilli muhitda ingliz tilini o'rganishning lingvistik xususiyatlari .....	78
<b>Teshaboyeva Mohichexra Sohibjon qizi</b>	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida bo'lajak pedagoglarning mediakompetentligini rivojlantirish zarurati.....	81
<b>Umarov Azizbek Vaxobovich</b>	
O'quvchilarda badiiy matn leksikasini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar: muammo va yechim.....	85
<b>Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi</b>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini ma'naviy tarbiyalashda Ahmad al-Farg'oniy asarlarini kompyuter imitatsion modellari asosida o'qitish metodikasi.....	89
<b>S. S. Qulmurodova</b>	
Enhancement of Periodontal Disease Management Strategies in Individuals With Chronic Hepatitis C Following Attainment of a Sustained Virological Response.....	92
<b>Makhmudova Ugiloy Bakhtiyorovna</b>	



Epithelial-Mesenchymal Transition's Possible Role in the Pathogenesis of Periodontitis (Literature Review).....	95
<b>Burkhonova Zараfruz Kobilovna</b>	
Gamifikatsiya asosida bo'lajak oligofrenopedagoglarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari mexanizmini tatbiq etish .....	102
<b>Bozorboyev Javlon</b>	
Bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish omillari.....	106
<b>Jamilova Dilsuza To'lqin qizi</b>	
Elektrir va magnit maydonida yorug'likning ikkilamchi sinishi.....	110
<b>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Alimardonov Husan Yorqin o'g'li, Ismatullayev Sayfiddin Panji o'g'li</b>	
Lazer texnologiyalarining zamonaviy qo'llanilishi .....	114
<b>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Muminova Sevinch Kamoliddin qizi, Begnayeve Dilbar Bobonazar qizi</b>	
Fotometrik kattaliklar .....	117
<b>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Mamatqulova Zebo Komiljon qizi, Xolmaxmatova Sevara Sirojiddin qizi</b>	
Qutublangan yorug'lik manbalari .....	121
<b>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Turdimurodova Kumushbibi, Normuminova Madina</b>	
Tabiatdagi optik hodisalar .....	125
<b>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Qudratova Sevinch Otabek qizi, Ulasheva Ruxshona Rustam qizi</b>	
Rus tilini o'qitishda kompetensiyaga asoslangan innovatsion yondashuvlardan foydalanish .....	129
<b>Erkinova Nozima Utkir qizi</b>	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasini tadqiq etishning ilmiy-metodologik tahlili .....	133
<b>Ikmatullayev G'. Z.</b>	
Raqamli ta'lim platformalarida matematika o'qitishda sun'iy intellekt yordamida baholash tizimini takomillashtirish .....	136
<b>Mirzayeva Shahlo Abduraxmanovna, Akbarov Ulug'bek, Abdivaliyeva Umida</b>	
Linguistic and Pedagogical Foundations of Teaching English as a Foreign Language in The Uzbek Context.....	140
<b>Shokirova Mushtariy</b>	
Sun'iy intellektning ta'lim jarayonidagi transformatsion roli .....	144
<b>Uzoqboyev Xojiakbar Qobuljon o'g'li</b>	
Enhancing Collaborative Learning and Peer Feedback in EFL Classrooms Through Padlet: a Digital Approach to Group Work and Assessment.....	148
<b>Veronica Khatamova</b>	
Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning rasmlar asosida aqliy faoliyatini rivojlantirishning vizual-didaktik texnologiyalarini takomillashtirish.....	152
<b>Meliqo'ziyev Abduraxmonjon Qahramonjon o'g'li</b>	
Emotsional intellekt – hr menejerlarning qaror qabul qilish kompetensiyasining determinanti sifatida .....	157
<b>Abdukarimov Muhammadjon Muratovich</b>	
O'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning tizimli-pedagogik modeli: nazariya, metodologiya va amaliyot .....	162
<b>Islamova Fotima Shamsiddinovna</b>	
Barkamol yosh avlod fazilatlarini shakllantirishda milliy innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni.....	170
<b>Olimova Dono Shakirovna, Baxtiyorova Shahnoza Mansurbekovna</b>	
Development of Prevention of Professional-Pedagogical Deformation on the Basis of Health-Saving Technologies in Higher Educational Institutions.....	174
<b>Saidova Parvina Mirzo kizi</b>	
O'zbek xalq pedagogikasi mazmuni asosida talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning ilmiy nazariy asoslari .....	178
<b>Rahmonqulova Guliza Faxriddin qizi</b>	



Bolalarning maktabgacha yosh davrida emotsional rivojlanishiga oid nazariy qarashlar tavsifi.....	182
<i>Abduraxmonova Gulmira Arapjon qizi, Yuldasheva Umida Maxmudovna</i>	
Alohida ehtiyojli bolalar uy ta'limini tashkil etishning korreksion pedagogik tizimining tarkibiy komponentlari.....	186
<i>Jo'raxo'jayev Muhammadazizxo'ja Xalilxo'ja o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia vositalarining ahamiyati.....	190
<i>Umida Marasulova</i>	
Boshlang'ich funksiya va aniqmas integral.....	193
<i>Mirzayeva Shahlo, Isroilova Zahro, Erkinova Shahrizoda, Javliyeva Dilnura</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalar adabiyoti kerakmi?!.....	196
<i>Dilfuza Shadiyeva</i>	
Experimental Study on the Psycho-Pedagogical Effectiveness of Mall-Based Multimodal Learning in Developing Pluricultural Competence .....	200
<i>Azimova Sevara Muzaffar qizi</i>	
Simulyatsion o'quv muhitida fizika o'qituvchilarining o'z-o'zini boshqarish va refleksiv kompetentligini oshirish .....	205
<i>Muradov Ilxomjon Abduxamid o'g'li</i>	
Ta'lim menejmentida strategik boshqaruv tushunchasining evolyutsiyasi.....	209
<i>Raximjonov Jamshid Rafiqjon o'g'li</i>	
Raqamli kompetentlik tushunchasining ilmiy-nazariy talqini va xorijiy hamda mahalliy tadqiqotlar tahlili .....	214
<i>Umirov Boboyor Baxtiyor o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyatlar samaradorligini oshirishda pedagogik multimedia vositalaridan foydalanish usullari.....	218
<i>Abdreimova Maftuna O'ktam qizi</i>	
Boshlang'ich sinf texnologiya darsliklarining tuzilishi hamda o'quvchilar yoshiga muvofiqligi.....	223
<i>Bobolov Nuriddin Tojiyevich</i>	
Oliy ta'limda pedagoglarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalar .....	228
<i>Isabekov Bahodir Isabek o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tolerantlik madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik masalalari .	233
<i>Boydavletova Sohiba Abduganiyevna</i>	
Aksiologik yondashuv asosida tarbiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	239
<i>G'aybullayev Bobur Nomonjon o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning ahamiyati.....	243
<i>Toshpo'latova Muxlisa G'olib qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv kompetentligini rivojlantirishning mazmuni va ilmiy-nazariy pedagogik asoslari.....	248
<i>Mamatqulova Saboxat Abduraxmonovna</i>	
Maktabgacha ta'limda monitoring va baholash tizimini takomillashtirish.....	253
<i>Amanova Durdona Kaxramonovna</i>	
O'zbekiston yoshlarining ma'naviy va estetik tarbiyasida tasviriy san'at va zamonaviy pedagogik texnologiyalar.....	257
<i>Esanova Hulkar Abdurayim qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida eksperimental-tajriba faoliyatini tashkil etish .....	261
<i>Gafurova Dilnoza Saloxiddinovna</i>	
Ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi xavfsizlik hissiga ta'sirining nazariy va amaliy tahlili .....	266
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Qoldiboyeva Xayriniso Eldarovna</i>	
Milliy o'yinlarni o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari.....	269
<i>Ismatov Po'latjon Abdumannobovich</i>	
Ta'lim sifatini boshqarish jarayonida kvalimetrik parametrlarini takomillashtirishda xorijiy tajribalarning ahamiyati .....	273
<i>Karimova Maxbubaxon Mukimjonovna</i>	



Innovatsion ta'lim sharoitida bolalar adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli.....	278
<i>Mirzayeva Nigora Bozorovna</i>	
Matematika o'qitishda milliy qadriyatlarni aks ettirish .....	282
<i>Mirzayeva Shahlo, Yuldoshova E'zoza Ravshan qizi,</i> <i>Muxtorova Sevinch Asad qizi, Xolboyeva Mushtariy Zayniddin qizi</i>	
Ingliz tilida fe'l frazeoformalarining morfologik tuzilishiga xos umumiy xususiyatlar.....	285
<i>Jo'rayeva Nargiza Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqini o'stirishda interaktiv metodlarning ahamiyati.....	289
<i>Ramazonova Munisa Hoshim qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining lug'at boyligini oshirishda intellektual o'yinlar va interfaol usullardan foydalanish.....	294
<i>Raxmonova Gulrux Ubaydullayevna, Ibragimova Dildora Turabovna</i>	
Maktabgacha ta'limda pedagoglar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda uslubiy xizmat va hamkorlik mexanizmlarining samaradorligi.....	298
<i>S. A. Rahmonberdiyev</i>	
Yoshlarni destruktiv submadaniyatlar ta'siridan himoyalashning innovatsion pedagogik usullari .....	304
<i>Xasanova Marxabo Turayevna</i>	
Социально-психологические особенности домашнего насилия в условиях трансформации семьи и цифровизации общества .....	308
<i>Абдукадилова Лаура Юльбарсовна, Абдуллаева Азиза Комилжон кизи</i>	
Педагогические основы развития инновационной компетентности педагогов в системе дошкольного образования.....	315
<i>Гульнара Ахтямовна</i>	
Роль учебного процесса и творческой деятельности в сохранении психологического равновесия.....	320
<i>Коршубаева Рано Хазраткуловна</i>	

# INNOVATSION TA'LIM SHAROITIDA BOLALAR ADABIYOTINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH MODELI

Mirzayeva Nigora Bozorovna

Toshkent amaliy falar universiteti dotsenti filologiya fanlari nomzodi

**Annotatsiya:** Maqolada innovatsion ta'lim sharoitida bolalar adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli ilmiy-metodik jihatdan asoslanadi. Bolalar adabiyoti badiiy tafakkur, kitobxonlik madaniyati, nutqiy rivojlanish, estetik did va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda muhim didaktik manba sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotda kompetensiyaviy yondashuv, badiiy matn bilan ishlash, metodik topshiriqlar tizimi, loyiha metodi, raqamli resurslar va refleksiv baholash imkoniyatlari yoritiladi. Taklif etilgan model maqsadli, mazmuniy, texnologik, faoliyatli hamda natijaviy-baholash komponentlaridan iborat. Model bolalar adabiyoti namunalarini o'qitishda tahlil, talqin, ijodiy loyihalash va baholash jarayonlarini uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchilarning kitobxonlik kompetensiyasi va mustaqil ijodiy fikrlashini rivojlantirishning samarali usullari asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** bolalar adabiyoti, o'qitish metodikasi, innovatsion ta'lim, badiiy matn, metodik topshiriqlar, kitobxonlik madaniyati, raqamli texnologiyalar, refleksiv baholash, kompetensiyaviy yondashuv, loyiha metodi.

**Abstract:** The article provides a scientific and methodological justification for a model aimed at improving the methodology of teaching children's literature in the context of innovative education. Children's literature is interpreted as an important didactic source for developing literary thinking, reading culture, speech, aesthetic taste, and moral values. The study highlights the potential of a competence-based approach, literary text analysis, a system of methodological assignments, project-based learning, digital resources, and reflective assessment. The proposed model consists of target, content, technological, activity-based, and result-assessment components. The model integrates analysis, interpretation, creative instructional design, and assessment in teaching children's literary works. In addition, the study substantiates effective methods for developing students' reading competence and independent creative thinking through innovative pedagogical technologies.

**Key words:** children's literature, teaching methodology, innovative education, literary text, methodological assignments, reading culture, digital technologies, reflective assessment, competence-based approach, project-based learning.

**Аннотация:** В статье научно-методически обосновывается модель совершенствования методики преподавания детской литературы в условиях инновационного образования. Детская литература рассматривается как важный дидактический источник формирования художественного мышления, культуры чтения, речевого развития, эстетического вкуса и нравственных ценностей. В исследовании определены целевой, содержательный, технологический, деятельностный и результативно-оценочный компоненты модели. Особое внимание уделено работе с художественным текстом, системе методических заданий, интерактивным методам, проектной деятельности и цифровым ресурсам. Показано, что использование инновационных подходов повышает эффективность преподавания детской литературы и развивает творческое отношение к чтению. Также обосновываются эффективные механизмы формирования читательской компетентности и самостоятельного творческого мышления учащихся.

**Ключевые слова:** детская литература, методика преподавания, инновационное образование, художественный текст, методические задания, культура чтения, цифровые технологии, рефлексивное оценивание, компетентностный подход, проектный метод.

## KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayonida adabiy ta'lim mazmunini yangilash, badiiy matnni o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy va innovatsion yondashuvlardan foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bolalar adabiyoti bolalik olamini, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, ezgulik, mehr-oqibat, do'stlik, vatanparvarlik hamda tabiatga mas'uliyatli munosabat kabi tarbiyaviy g'oyalarni badiiy obrazlar orqali yetkazadi <sup>[1]</sup>.



Bolalar adabiyotini o'qitishda asosiy vazifa faqat asar mazmunini qayta hikoya qildirishdan iborat emas. Mazkur jarayonda badiiy matnni ongli idrok etish, qahramon xarakterini tahlil qilish, asar g'oyasini anglash, obrazli ifoda vositalarini kuzatish, mustaqil xulosa chiqarish va ijodiy munosabat bildirish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega <sup>[2]</sup>.

Bugungi pedagogik amaliyotda bolalar adabiyoti namunalari bilan ishlashda interfaol metodlar, loyihaviy faoliyat, muammoli vaziyatlar, dramatisatsiya, elektron kitob, audiomatn, multimedia taqdimoti, onlayn viktorina va elektron portfolio kabi vositalardan samarali foydalanish zarurati ortmoqda. Bunday vositalar ta'lim oluvchilarning matn bilan faol ishlashini, fikrini asoslashini, ijodiy mahsulot yaratishini va o'z faoliyatini baholashini ta'minlaydi <sup>[3]</sup>.

Maqolaning obyekti bolalar adabiyotini o'qitish jarayoni, predmeti esa innovatsion ta'lim sharoitida bolalar adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirish modelidir. Maqolaning maqsadi bolalar adabiyotini o'qitishda maqsad, mazmun, texnologiya, faoliyat va baholash komponentlarini yagona metodik tizim sifatida asoslashdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun bolalar adabiyotini o'qitishning nazariy-metodik asoslari tahlil qilindi, innovatsion metodlarning didaktik imkoniyatlari tavsiflandi, badiiy matn bilan ishlashga doir metodik topshiriqlar tizimi belgilandi hamda takomillashtirish modelining tarkibiy qismlari ishlab chiqildi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuga oid ilmiy-metodik manbalarda bolalar adabiyoti badiiy-estetik tarbiya, kitobxonlik madaniyati, nutqiy rivojlanish va shaxsiy qadriyatlarini shakllantirishning muhim vositasi sifatida talqin qilinadi <sup>[4]</sup>. Ushbu qarash bolalar adabiyoti darslarida matn mazmuni, janr xususiyati, obrazlar tizimi va tarbiyaviy g'oyani uyg'un tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi.

Adabiyot o'qitish metodikasiga oid tadqiqotlarda badiiy matnni idrok etish, savol-topshiriq orqali tahlil qilish, mustaqil fikrlash, ijodiy munosabat bildirish va xulosa chiqarish jarayonlari asosiy metodik yo'nalish sifatida ko'rsatiladi <sup>[5]</sup>. Demak, bolalar adabiyotini o'qitish metodikasi ham tayyor ma'lumotni yetkazishdan ko'ra matn ustida faol ishlashni tashkil etishga tayanishi kerak.

Adabiy ta'limda topshiriqlar tizimining ahamiyatini asoslovchi manbalarda bilish, tushunish, tahlil qilish, talqin etish, ijodiy o'zgartirish va baholash bosqichlari izchil qo'llanishi ta'kidlanadi <sup>[6]</sup>. Bu yondashuv bolalar adabiyotini o'qitishda reproduktiv savollardan boshlab muammoli, interpretativ, loyihaviy va refleksiv topshiriqlargacha bo'lgan metodik tizimni yaratishga imkon beradi.

Psixologik-pedagogik manbalarda badiiy asarni idrok etishda hissiy kechinma, tafakkur va nutqiy ifoda birligi muhimligi qayd etiladi <sup>[9; 10]</sup>. Shu sababli bolalar adabiyotini o'qitishda ifodali o'qish, obrazli tasavvur, qahramon kechinmasini his qilish, dialog, munozara va ijodiy yozuv kabi faoliyat turlarini birgalikda tashkil etish samarali hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bolalar adabiyoti, badiiy matn tahlili, kitobxonlik, nutqiy rivojlanish va metodik topshiriqlar bo'yicha ilmiy asoslar mavjud. Biroq innovatsion ta'lim sharoitida bolalar adabiyotini o'qitish jarayonini komponentli model asosida tashkil etish, raqamli resurslar va refleksiv baholash bilan boyitish masalasi yanada tizimli yondashuvni talab qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani tayyorlashda nazariy-metodologik tahlil, qiyosiy-tahliliy yondashuv, pedagogik modellashtirish, tizimlashtirish, umumlashtirish va metodik loyihalash usullaridan foydalanildi. Nazariy tahlil orqali bolalar adabiyoti, badiiy matn, adabiy kompetensiya, metodik topshiriq va innovatsion ta'lim texnologiyalariga oid qarashlar umumlashtirildi.

Qiyosiy-tahliliy yondashuv yordamida an'anaviy matn bayoni va savol-javobga asoslangan usullar faoliyatga yo'naltirilgan, muammoli, loyihaviy va raqamli vositalar bilan boyitilgan yondashuvlar bilan taqqoslandi. Natijada bolalar adabiyotini o'qitishda faollik, mustaqil fikrlash, ijodiy mahsulot yaratish va refleksiya bosqichlarini kuchaytirish zarurligi aniqlandi.

Pedagogik modellashtirish usuli orqali takomillashtirish modelining maqsadli, mazmuniy, texnologik, faoliyatli va natijaviy-baholash komponentlari belgilandi. Har bir komponent bolalar adabiyotini o'qitish jarayonining muayyan didaktik vazifasini bajaradi va umumiy metodik natijaga xizmat qiladi.

Metodik loyihalash usuli asosida bolalar adabiyoti asarlarini o'rganish bo'yicha topshiriqlar reproduktiv, analitik, interpretativ, ijodiy, loyihaviy va refleksiv bosqichlarga ajratildi. Bunday bosqichlilik avval matnni tushunish, keyin uni tahlil qilish, so'ngra ijodiy qayta ishlash va natijani baholash imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasida kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan, integrativ va refleksiv yondashuvlar yetakchi o'rin tutdi. Ushbu yondashuvlar bolalar adabiyotini o'qitishda bilim, ko'nikma, qadriyat, ijodiy faoliyat va baholash jarayonlarini o'zaro bog'lashga xizmat qiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bolalar adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirish zarurati, avvalo, badiiy matn bilan ishlash jarayonining ko'p qirrali xususiyati bilan belgilanadi. Bolalar adabiyoti namunasi faqat mazmuniy axborot emas, balki obraz, g'oya, hissiy kechinma, estetik ta'sir, tarbiyaviy ma'no va nutqiy rivojlanish imkoniyatlarini o'zida jamlagan pedagogik manbadir.

Taklif etilayotgan modelning maqsadli komponenti bolalar adabiyotini o'qitishda badiiy-estetik idrok, matni tahlil qilish, fikrni asoslash, nutqiy ifoda, ijodiy yondashuv va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratiladi. Mazmuniy komponentda xalq og'zaki ijodi, o'zbek bolalar adabiyoti, jahon bolalar adabiyoti va zamonaviy bolalar adabiyoti namunalarini mavzu, janr, g'oya, obrazlar tizimi hamda yosh xususiyatiga moslik mezonlari asosida tanlanadi.

Texnologik komponentda muammoli ta'lim, keys-stadi, loyiha metodi, rolli o'yin, dramatisatsiya, konseptual xarita, audiokitob, elektron kitob, multimedia taqdimoti, onlayn viktorina va raqamli hikoya yaratish vositalaridan foydalanish nazarda tutiladi. Bu vositalar badiiy matni ko'rish, eshitish, o'qish, muhokama qilish va ijodiy qayta ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Faoliyatli komponent ta'lim oluvchini matni passiv tinglovchi emas, balki faol tahlilchi, talqinchi va ijodiy ishtirokchi sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur komponentda ifodali o'qish, matn qismlarini izohlash, qahramon xaritasini tuzish, voqealar zanjirini aniqlash, muqobil yakun yaratish, qahramonga maktub yozish, sahnalashtirish va guruhda munozara qilish kabi ish turlari qo'llanadi.

1-jadval: Bolalar adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli

Model komponenti	Mazmuni	Innovatsion vositalar	Kutiladigan natija
<b>Maqsadli</b>	Badiiy-estetik idrok, nutqiy rivojlanish, mustaqil fikr, ijodiy yondashuv va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish	Kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, muammoli vaziyat	Matni anglaydigan, tahlil qiladigan va xulosa chiqaradigan ta'lim oluvchi
<b>Mazmuniy</b>	Folklor, o'zbek va jahon bolalar adabiyoti, zamonaviy asarlar, janr va g'oya tahlili	Elektron kitob, audiomatn, mediamatn, infografika, metodik xarita	Asarni mavzu, g'oya, janr va tarbiyaviy imkoniyat asosida tahlil qilish
<b>Texnologik</b>	Badiiy matn bilan ishlash, topshiriqlar tizimi, ijodiy mahsulot yaratish texnologiyalari	Keys-stadi, loyiha, dramatisatsiya, rolli o'yin, LMS, elektron portfolio	Dars jarayonini interfaol va innovatsion metodlar asosida tashkil etish
<b>Faoliyatli</b>	Ifodali o'qish, qahramon xaritasi, voqealar zanjiri, ijodiy yozuv, sahnalashtirish va munozara	Juftlikda ishlash, debat, refleksiya, onlayn test, video tahlil	Faol tahlil, talqin va ijodiy qayta ishlash ko'nikmalarini shakllantirish
<b>Natijaviy-baholash</b>	Matni tushunish, tahlil sifati, ijodiy topshiriq, nutqiy ifoda va refleksiv xulosani baholash	Rubrika, mezonli baholash, o'zaro baholash, portfolio	Bolalar adabiyotini ongli o'zlashtirish va ijodiy qo'llash natijasiga erishish

Jadvaldan ko'rinadiki, model bolalar adabiyotini faqat badiiy matnlar majmuasi sifatida emas, balki adabiy-estetik, nutqiy, axloqiy va ijodiy rivojlanishni ta'minlovchi metodik tizim sifatida talqin etadi. Modelda matni o'qish, anglash, tahlil qilish, talqin etish, ijodiy qayta ishlash va baholash bosqichlari uzviy bog'lanadi.

Modelning amaliy tatbiqida metodik topshiriqlar tizimi markaziy o'rin tutadi. Birinchi bosqichda asar mazmuni, janri, mavzusi va qahramonlari aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda obraz, g'oya, kompozitsiya va badiiy til xususiyatlari tahlil qilinadi. Uchinchi bosqichda muammoli savollar va ijodiy topshiriqlar orqali shaxsiy munosabat bildiriladi. To'rtinchi bosqichda sahna ko'rinishi, rasmlilik hikoya, audio hikoya, taqdimot yoki muqobil yakun kabi ijodiy mahsulot yaratiladi. Beshinchi bosqichda faoliyat natijasi mezonlar asosida baholanadi.

Masalan, ertak janrini o'rganishda avval ertakning kompozitsiyasi, takroriy birliklari, obrazlar tizimi va xalqona badiiy vositalari tahlil qilinadi. Keyin "qahramon xaritasi", "voqealar zanjiri", "qahramonga maktub", "ertakka yangi yakun", "men hikoyachiman" kabi topshiriqlar bajariladi. Bu jarayon bolalar adabiyotini o'qitishda tasavvur, nutq, mustaqil fikr va ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Raqamli resurslardan foydalanish bolalar adabiyotini o'qitishning ta'sirchanligini oshiradi. Elektron kitoblar matn bilan mustaqil ishlashni, audiomatnlar ifodali o'qishni, multimedia taqdimotlari obraz va voqealarni vizual anglashni, onlayn testlar tezkor teskari aloqani, elektron portfolio esa shaxsiy o'sishni kuzatishni ta'minlaydi. Biroq raqamli vosita metodik maqsadga xizmat qilishi, badiiy matn tahlili va ijodiy faoliyatni kuchaytirishi lozim.



Baholash jarayonida faqat mazmuni aytib berish emas, balki matni anglash, qahramon harakatini dalil-lash, asar g'oyasini izohlash, obrazli ifodalarni topish, ijodiy topshiriqni bajarish, fikrni og'zaki va yozma shaklda ifodalash kabi ko'rsatkichlar e'tiborga olinadi. Mezonli baholash va refleksiya natijani aniq, adolatli va rivojlanti-ruvchi tarzda aniqlash imkonini beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bolalar adabiyotini o'qitishda uchta muammo ko'proq uchraydi: matn mazmunini qayta hikoya qilish bilan cheklanib qolish, ijodiy-metodik topshiriqlarning yetarli darajada tizimlashtirilmasligi va baholash mezonlarining aniq belgilanmasligi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun har bir mavzu bo'yicha bosqichli topshiriqlar bankini ishlab chiqish, interfaol metodlarni maqsadli tanlash va baholash rubrikalaridan foydalanish zarur.

Shunday qilib, bolalar adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirish badiiy matni o'rganish jarayonini faollashtiradi, kitobxonlikka qiziqishni oshiradi, nutqiy faollik, axloqiy qadriyat, estetik did va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Innovatsion ta'lim sharoitida bolalar adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirish badiiy matn bilan ishlashni mazmuniy, tarbiyaviy, estetik, nutqiy va ijodiy jihatdan yaxlit tashkil etishni talab etadi. Bolalar adabi-yoti asarlari orqali kitobxonlik madaniyati, mustaqil fikrlash, obrazli tasavvur, nutqiy ifoda va axloqiy qadri-yatlarni rivojlantirish imkoniyati kengayadi.

Maqolada taklif etilgan model maqsadli, mazmuniy, texnologik, faoliyatli va natijaviy-baholash kompo-nentlaridan iborat. Mazkur model bolalar adabiyotini o'qitish jarayonini tayyor ma'lumotni o'zlashtirishdan faol tahlilga, oddiy savol-javobdan ijodiy topshiriqqa, yakka baholashdan refleksiv va mezonli baholashga yo'nal-tiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bolalar adabiyoti bo'yicha har bir mavzu uchun bosqichli metodik topshiriqlar bankini ishlab chiqish zarur. Mashg'ulotlarda muammoli savol, keys-stadi, loyiha, dramatisatsiya, rolli o'yin, elektron portfolio va raqamli hikoya yaratish kabi innovatsion shakllarni tizimli qo'llash lozim. Asar tahlili mavzu, g'oya, janr, qahramonlar tizimi, til xususiyati va tarbiyaviy maqsad bilan uzviy bog'lanishi kerak.

Baholash jarayonida matni tushunish, tahlil qilish, dalillash, ijodiy topshiriq bajarish, nutqiy ifoda va refleksiv xulosa chiqarish ko'rsatkichlari alohida mezonlar asosida baholanishi maqsadga muvofiq. Bolalar adabiyotini o'qitishda elektron kitob, audiomatn, multimedia taqdimoti va onlayn topshiriqlardan foydalanish badiiy matn bilan ishlash samaradorligini oshiradi.

Umuman olganda, bolalar adabiyotini innovatsion metodlar asosida o'qitish adabiy ta'lim samaradorligini oshiradi, kitobxonlikka ijobiy munosabatni mustahkamlaydi hamda badiiy matndan tarbiyaviy, estetik, nutqiy va ijodiy maqsadlarda samarali foydalanishga imkon yaratadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-637, 23.09.2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrda 781-son "2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategi-yasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
4. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti. - Buxoro, 2019.
5. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. - Toshkent: Barkamol fayz media, 2018. - 352 b.
6. Rasulova G. K. Adabiy ta'limda topshiriqlar ishlab chiqishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish: pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. - Chirchiq, 2026.
7. Niyozmetova R. H. Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'rganish metodikasi. Monografiya. - Toshkent, 2006.
8. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 1996.
9. Выготский Л. С. Психология искусства. - Москва: Искусство, 1986.
10. Леонтьев А. А. Язык, речь, речевая деятельность. - Москва: Просвещение, 2017. - 248 с.11. Dewey J. Democracy and Education. - New York: Macmillan, 1916.
11. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. - Toshkent: O'qituvchi, 1992.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.